

FISKAL SIYOSAT VA UNING MOHOYATI

Maxmadaliyev Raxmatulla Jumanazarovich

G‘aniyev Zikriya Azimovich

Jo‘rayev Jasurbek Azamat o‘g‘li

Jo‘rayeva Yulduz Xaitmurot qizi

Kurtova Feruza Raxmanovna

TerDU talabalari

Annotatsiya

Fiskal siyosat davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi asosiy vositalaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada fiskal siyosatning ahamiyati, davlatning soliq va byudjet xarajatlarini boshqarish orqali iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish usullari va ularning samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, fiskal siyosatning davlat qarzi va inflyatsiyaga ta’siri ham qamrab olingan.

Kalit so’zlar. Fiskal siyosat, soliq siyosati, davlat xarajatlari, byudjet balansini boshqarish, iqtisodiy barqarorlik, davlat qarzi, inflyatsiya, iqtisodiy o‘sish.

Abstract

Fiscal policy is one of the main tools of the state in managing the economy, and it is important in stimulating economic growth and maintaining social stability. In this article, the importance of fiscal policy, the methods of influencing the economy through the management of state tax and budget expenditures, and their effectiveness are analyzed in depth. The impact of fiscal policy on public debt and inflation is also covered.

Keywords. Fiscal policy, tax policy, government spending, budget balance management, economic stability, public debt, inflation, economic growth.

KIRISH

Fiskal siyosat iqtisodiy boshqaruvning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, davlat tomonidan iqtisodiy sikllarni muvozanatga keltirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. Asosiy maqsad iqtisodiyotdagi o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishdir. Ushbu siyosat asosan davlat xarajatlari va soliqlarga asoslangan. Davlat iqtisodiyotni rag‘batlantirishda davlat xarajatlarini oshiradi yoki soliq stavkalarini kamaytiradi; aksincha, inflyatsiya kuchayganda, xarajatlarni qisqartiradi va soliqlarni oshiradi. Bunday yondashuv davlatning iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fiskal siyosatning turli jihatlari bo‘yicha turli iqtisodchilar tomonidan o‘rganilgan. Klassik iqtisodiyot nazariyasida davlatning iqtisodiyotga ta’siri cheklangan bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Biroq Keynesian iqtisodiyot nazariyasida davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli yuqori baholanadi. Keynes davlat xarajatlari va soliqlardan foydalanib iqtisodiy faoliyatni oshirish imkoniyatini ta’kidlagan.

Masalan, Musgrave (1989) fiskal siyosatning asosiy komponentlari sifatida davlat xarajatlari va soliq siyosatini ajratib ko‘rsatadilar. Ularning fikricha, fiskal siyosat nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, balki ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tanlangan adabiyotlarda davlatning soliq siyosati va byudjet daromadlarining ta’siri hamda davlat qarzining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqotda fiskal siyosatning turli iqtisodiy o‘zgaruvchilarga ta’siri tahlil qilingan. Analiz qiyosiy usulda olib borilgan bo‘lib, turli mamlakatlarning fiskal siyosat natijalari

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-11

va o‘zgaruvchan iqtisodiy ko‘rsatkichlari qiyoslanadi. Statistik tahlilda davlat xarajatlari va soliqlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, iqtisodiy o‘sishga ta’siri va inflyatsiyaga ta’siri asosida natijalar chiqariladi.

NATIJALAR

Fiskal siyosatning iqtisodiy barqarorlik va o‘sishdagi o‘rni katta. Ammo uning samaradorligi davlatning moliyaviy imkoniyatlari, iqtisodiy struktura va davlat qarzi darajasi kabi omillarga bog‘liq.

1-jadval. Turli mamlakatlarning fiskal siyosat ko‘rsatkichlari, ularning iqtisodiy o‘sishga va barqarorlikka ta’siri

Davlat	Davlat xarajatlari (% YaIM)	Soliq daromadlari (% YaIM)	Davlat qarzi (%) YaIM)	Iqtisodiy o‘sish (%)	Inflyatsiya (%)
AQSh	35%	28%	95%	2.1%	1.8%
Germaniya	44%	39%	60%	1.6%	1.4%
Yaponiya	40%	30%	235%	0.9%	0.5%
Fransiya	50%	45%	100%	1.2%	1.3%

Yuqorida jadvalda keltirilgan ma'lumotlar orqali davlat xarajatlari va soliq daromadlari iqtisodiy o‘sishga va inflyatsiya darajasiga qanday ta’sir qilayotgani yaqqol ko‘rsatiladi. Davlat xarajatlari yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish nisbatan sustroq bo‘lishi mumkin, chunki davlatning qo‘sishimcha xarajatlari soliqlarni oshirishi orqali tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, inflyatsiya darajasi pastroq darajada saqlanadi.

XULOSA

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-11

Fiskal siyosat iqtisodiy barqarorlik va o'sish uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan muhim vositalardan biridir. Bu siyosatni samarali qo'llash natijasida davlat iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishi yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishi mumkin. Biroq fiskal siyosatni amalga oshirishda davlat qarzi va inflyatsiyani nazorat qilish zaruriyati mavjud. Maqola davomida tahlillar fiskal siyosatni o'z vaqtida va mohirona qo'llash davlatga iqtisodiy sikllarni muvozanatlash va barqaror o'sishni ta'minlash imkoniyatini berishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J.M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. Macmillan Cambridge University Press.
2. Musgrave, R.A., & Musgrave, P.B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. McGraw-Hill.
3. Tanzi, V., & Zee, H. (2000). "Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries." *National Tax Journal*, 53(2), 299-322.
4. Blanchard, O., & Johnson, D.R. (2013). *Macroeconomics*. Pearson.
5. Auerbach, A.J., & Gale, W.G. (2009). "The Effects of Fiscal Policy on Consumption and Employment." *Brookings Papers on Economic Activity*.